XALQ DEPUTATLARI XO‘JAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-2-010-1-27-K/24 Xo‘jaobod tumani

Xo‘jaobod tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Andijon viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04-15-/1898-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Xo‘jaobod tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **106 387 340,0 ming. so‘m** va xarajatlari esa **106 387 340,0 ming. so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Xo‘jaobod tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **479 000,0 ming. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Xo‘jaobod tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 298 164,0 ming. so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek

ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 5-ilovaga hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Mirzaolimov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi D.Jo‘rayev, tuman soliq inspeksiyasi A.Musayev bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (J.Pozilov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Mirzaolimov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

BOZORBOYEV
JAMSHID RAFIQJON
O‘G‘LI

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-010-1-27-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Xo‘jaobod tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognozi

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Summa
	JAMI	**106 387 340**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	85 550 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	44 200 340
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 529 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 616 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 167 000
6	Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i	14 860 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	11 721 000
8	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	7 712 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 867 000
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	165 000

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-010-1-27-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Xo‘jaobod tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**106 387 340,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	29 981 505,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 986 171,0
2	Madaniyat bo‘limi	3 374 538,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 693 518,0
4	Sport bo‘limi	5 962 365,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 887 640,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 161 609,0
7	Irrigatsiya bo‘limi	1 954 659,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 061 664,0
9	Hokimiyat	35 623 122,0
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*24 431 202,0*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 127 000,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 298 164,0*
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	849 216,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*155 378,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*693 838,0*
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	17 837 504,0

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-010-1-27-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun ajratma me’yorlari
P R O G N O Z I

	Hudud lar nomi	Jismoniy shaxslar dan olinadi gan daromad solig’i	Foy da soli g’i	Alkogol mahsu lot lari (pivodan tashqari) uchun solig’i	Benzin, dizel yoqilg’isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizasiya qilishda to’lanadigan aksiz solig’i	Yuridik shaxslar ning mol-mulkiga solinadi gan soliq	Yuridik shaxslar dan olinadigan yer solig’i	Qurilish material lari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resursla ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat ulushi bo’yicha divident lar	Aylanmadan soliq	Davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar	Yer uchastlari ga bo’lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag’ lari	avlat boji	rima	ig’im lar	Boshqa (3450603, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 daromad kodlari bo’yicha) tushumlar
1	**Xo’jaobod tumani**	**71%**	**0%**	**0%**	**0%**	**100%**	**100%**	**100%**	**100%**	**0%**	**100%**	**50%**	**50%**	**0%**	**0%**	**0%**	**100%**

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-010-1-27-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025-yil uchun Xo‘jaobod tuman bo‘yicha mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Hududlar nomi	Koeffitsent miqdori	Binolar *(umumiy maydonning 1 kv.metri uchun)*	
			turar joy	noturar joy
1.	Xo‘jaobod tumani	1,20	6 600	13 200

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi hamda ko‘chmas mulkdan tekin foydalanish shartnomalariga (yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi tuzilgan shartnomalar bundan mustasno) tatbiq etiladi.